



ZAMONAVIY GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: nazariya, amaliyot, innovatsiya

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Samarqand 2023 yil 12-13 May

СОВРЕМЕННЫЕ ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: теория, практика, инновация

международная научно-практическая конференция

г. Самарканд, 12-13 Май

MODERN GEOGRAPHICAL RESEARCH: theory, practice, innovation

International scientific-practical conference

Samarkand, May 12-13, 2023



Ernazarov Sh	Surxondaryo viloyati shahar joylaridagi ijtimoiy infratuzilma muammolari.....	242
Hamdamov E.D.	Rekreatsiya va turizmga oid geografik tadqiqotlar: tarixi va rivojlanishi.....	246
Ibragimov L.Z. Boboyev Sh.X.	Geografik tadqiqotlarda agrosanoat klasterlarini o'rganishi.....	251
Jumabayev T.J. Rustamov U.A.	Janabiy O'zbekistonda tibbiy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari.....	255
Kadirov M.A. Usmonov A.U.	Toslikent iqtisodiy rayoni o'rta shaharlari rivojlanishining geografik jihatlari.....	259
Kadirov M.A. Ulmasova Z.	Samarqand viloyatida shahar aholi punktlarining shakillanishi va rivojlanishi.....	263
Komilova N.K. Ravshanov A.X.	Yuqumli-parazitar kasalliklarning hududiy tarkibi.....	268
Makhkamov E.G.	Theoretical and methodological aspects of the assessment of touristic and recreational potential.....	272
Mirzoyeva I.E.	To'dako'l suv omborining rekreatsion imkoniyatlardan samarali foydalanishning geografik jihatlari.....	276
Muqimova H.I. Nurmatov N.E.	Sakral geografiyaning nazariy- metodologik masalalari.....	280
Muxammedova N.J. Meyliyeva Ch.	Navoiy viloyatida maktabgacha ta'lim muassasalari joylashuvidan o'ziga xos xususiyatlar.....	284
Nasridinova F.F.	Samarqand viloyati aholisining hududiy tarkibi.....	287
Norkuvatova G.L. Norov Sh. Sh.	Navoiy viloyati yengil samoat tarmoqlari rivojlanishi va hududiy tashkil istiqbollarini prognozlash.....	290
Qoraboyev A. A. Pardayev N.S.	Farg'ona viloyati aholisining yosh va jins tarkibi.....	294
Qurbanov P.R. Sharipova A.Sh.	Qashqadaryo viloyati kichik shaharlari rivojlanishining iqtisodiy geografik xususiyatlari.....	297
Qurbanov Sh.B. Ro'zmatov B.Z. Yaxshimurodova D.Q.	Shahar ma'muriy tumanlari - iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlarning ob'ekti sifatida.....	302
Usmanov M.R. Rustamova M.	Xorazm viloyatida qishloq turizmni rivojlanirish istiqbollari.....	306
Xidiraliyev K.E. Xoldorov D.B.	Sirdaryo viloyati innovatsiyalar markazi: muammo va yechimlar....	311
Xodjaeva G.A. Bayramova M.D. Aliyeva B.A.	Qoraqalpogiston respublikasi aholisining zamanoviy demografik o'zgarishlari.....	316
Xudoiberdiyeva I.	Navoiy viloyatida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy- geografik jihatlari.....	318
Абдунизаров Х.М. Ниёзов Х.М.	Иқтисодий география фанида яратилган илмий назариялар ва уларнинг жамият тарақкиётидаги ўрини.....	322
Авезов С. А.	Хоразм viloyati aholisini zhойлашувин ва uning xудудий	326

7. Makhkamov E. G., Umarzakova G. A., Gopporova F. B. PROSPECTS OF ECOTOURISM DEVELOPMENT IN FERGANA PROVINCE //Journal of Geography and Natural Resources. – 2022. – T. 2. – №. 02. – C. 33-39.
8. Mironenko N.S., Tverdoxlebov I.T. Рекреационная география. -М., 1981. -207 с.
9. Sarancha M. A. Территориальная туристско-рекреационная система как комплексное общественно-природное образование // Вестник Удмуртского университета. Сер.6. «Биология. Науки о Земле». Вып. 3, 2010. С. 58-67.
10. Safarov B. (2010). The models of prognosis of regional tourism's development // Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB, 6(3), 80-83.
11. Vedenin Y.A., Miroshnichenko Н.Н. Оценка природных условий для организации отдыха // Известия АН СССР. Серия географическая. 1969. № 4. С. 51-60.

TO'DAKO'L SUV OMBORINING REKREATIONS IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

Mirzojeva I.E. (Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston)

Annotatsiya. Maqolada To'dako'l suv omborining sohilbo'yidam olish zonasini zamonavly infratuzilmasini rivojlanitirish hamda rekreatsion imkoniyatlaridan samarali foydalananishning geografik jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar. suv ombori, cho'l, rekreatsiya, ekologik, Amu-Buxoro mashina kanali, rekultivatsiya, fitomelioratsiya, ekoturizm, tarixiy-memoriy, arxeologik, ethnografik, diniy, agroturizm, "Silk Road Family Resort" sayyohlik kurorti

ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕКРЕАЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ТУДАКУЛЬСКОГО ВОДОХРАНИЛИЩА

Аннотация. В статье рассмотрены географические аспекты развития современной инфраструктуры прибрежной рекреационной зоны Тудакульского водохранилища и эффективного использования рекреационных возможностей.

Ключевые слова. водохранилище, пустыня, рекреация, экологический, сельское хозяйство, Аму-Бухарский машинный канал, рекультивация, фитомелиорация, экотуризм, историко-архитектурный, археологический, этнографический, религиозный, агротуризм, туристический комплекс «Семейный курорт Шелкового пути».

GEOGRAPHICAL ASPECTS OF EFFECTIVE USE OF RECREATION OPPORTUNITIES OF TODAKOL WATER RESERVOIR

Abstract. The article describes the geographical aspects of the development of the modern infrastructure of the coastal recreation zone of the Todakol reservoir and the effective use of recreational opportunities.

Keywords. water reservoir, desert, recreation, ecological, agriculture, Amu-Bukhara machine canal, recultivation, phytomelioration, ecotourism, historical-architectural, archaeological, ethnographic, religious, agrotourism, tourist resort "Silk Road Family Resort"

Ma'lumki, suv omborlari xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini suvgaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Suv omborlari barpo etishning asosiy maqsadi ham daryolar suv rejimini tartibga solish va abholining maishiy - kommunal, xo'jalik ehtiyojlarini uzlusiz suv bilan ta'minlashdan iborat. So'nggi yillarda sug'oriladigan maydonlarni kengayishi, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va yangi yerlarning o'zlashtirilishi, suvdan energetika va boshqa maqsadlarida foydalananish hamda suv

oqimlarini rostlashda, dam olish maqsadida, suv omborlarining ahamiyati ortib bormoqda.

Ko'p asrlik tarix guvohki, kishilar savdoni rivojlantirish, yangi yerlarni ochish va o'zlashtirish, resurslar va yangi transport yo'llarini izlab topish maqsadida jahon bo'ylab sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

"Buyuk ipak yo'li" bo'ylab safarga chiqqan savdogarlar, keyinroq esa mamlakatlar manfaatini himoya qiluvchi davlat elchilar, ilmni maqsad qilib olgan olimlar va allomalar, harbiy jabhalarda o'zga hududlarga kirgan jangchilar gavdalaniadi. Shukrlar bo'lsinkim, bularning aksariyati safarlar davomida o'zga hududlar tarixi, geografiyasi, zahmatkash xalqi, millatlarning urf - odatlari, an'ana va marosimlari, boy madaniy merosi bilan yaqindan tanishganlar hamda ular haqida ajoyib asarlar, xotira va esdaliklar yozib qoldirishgan. Masalan, fransuz tadqiqotchisi va geografi Pifey (eramizdan avvalgi 320 - yil) esa o'sha vaqtarda aql bo'var qilmaydigan tarzda butun Yevropa bo'ylab sayohat qilgan. U Britaniya orollarini aylanib o'tib, Norvegiya va Islandiyagacha borgan.

Mamlakatimiz hududida ham ana shunday sayohatchilarini o'ziga chorlovchi jozibali tabiat manzaralari kam emas.

Cho'l landshaftlari boshqa zonal landshaft tiplariga quraganda o'ziga xos rekreatsion imkoniyatlarga ega. Rekreatsiya tarixiy kategoriya, insonning turmush sharoiti, dunyoqarashi rekreatsiyaga nisbatan o'zgarib, takomillashib boradi. Iqtisodiy farovonlik va u bilan bog'liq bo'lgan ma'nnaviy yetuklik rekreatsiyaga bo'lgan ehtiyojni belgilab turadi. Ijtimoiy hayot darajasi yuksalib borgan sari dam olishga, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga bo'lgan ishtiroq ortib boradi.

Cho'l zonasida uzoq davrlardan buyon vohalarda, shaharlarda (madaniy zonada) yashovchi aholi orasida "Cho'lga chiqib kelaylik", "Bir barrachaxo'rlik (qo'zi) qilib kelaylik", "Hazor Nurga ziyyaratga boraylik", degan iboralar mavjud. Haqiqatdan ham bahor oylarida qishloq aholisidan yor-u do'star, avlod-ajodlar birgalashib bir avtobus yoki katta yuk mashinada 20-30 kishini cho'lga sayrga, dam olishga yoki ziyyaratga bir-ikki kunlik muddatga chiqishlarini kuzatish mumkin.

Keyingi yillarda jahon turizmining noan'anaviy turlari: ekoturizm, tarixiy-me'moriy, arxeologik, etnografik, diniy, agroturizm, favqulotda hodisalar turizmi kabi sohalar tez sur'atlar bilan ommalashib bormoqda. Qayd qilish joizki, bular orasida ekoturizm O'zbekiston Respublikasi uchun eng istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki, respublikamizda mujassam bo'lgan cho'l, adir, tog' landshaftlari, inson qudrati bilan yaratilgan moddiy va nomoddiy meroslar betakror ekoturistik mazmun-mohiyatga ega. Bu borada cho'l ekoturizmi bilan bog'liq imkoniyatlar alohida istiqbolga ega. Respublikamiz hududining 70 foizini egallab turgan chala cho'l va cho'l landshaftlari ekoturizmining tabiiy-iqtisodiy-ijtimoiy poydevori hisoblanadi. Ekoturizm bozorini tashkil qilish va rivojlantirish uchun eng avvalo har bir hududning ekologik xususiyatlari va imkoniyatlarini mukammal o'rganish lozim. Chunki, hududning ekologik tabiiy-ijtimoiy asosini bilmasdan turib ekoturizm bozorini samarali tashkil qilib bo'lmaydi.

Cho'l mintaqalari o'ziga xos tabiiy geografik birlik hisoblanadi. Ularning eng muhim xususiyati yog'in-sochinning o'ta kamligi va mumkin bo'lgan parchalanishning juda yuqoriligidir. Demak bu hududlar, suv tanqisligi bilan boshqa landshaft turlari orasida alohida ajralib turadi. Odatda cho'l hududlarida aholi punktlari tarqoq va mayda xo'jalik tarmoqlari ekstensiv rivojlangan bo'ladi. Ularning demografik va iqtisodiyot salohiyatini va zaifligi tufayli cho'llar ko'pincha, "bo'sh yerlar" ma'nosida tulqin qilinadi [2].

Bugungi kunda dam olish resurslariga bo'lgan talab tobora oshib bormoqda. Turmush farovonligi aholi madaniyatining yuksakligi demografik o'sish kabi olimlar dam olishga bo'lgan talabni kuchaytirib boradi. Ma'lumki, respublikamiz hududining aksariyat qismi jumladan aholiga gavjum bo'lgan yirik vohalar ham cho'l zonasida joylashgan. Lekin bu hududning tabiiy

dam olish resurslari adir, tog", yaylov mintaqalariga nisbatan birmuncha cheklangan. Ayniqsa yilning iliq davrida ya'ni dam olish resurslariga bo'lgan talab kuchaygan pallada cho'l zonasini dam olish imkoniyatlari yanada tabiiy cheklanadi. Ko'zni qamashtiradigan o'ta yorug' kunlar jazirama issiq chang-to'zonlli quruq havo, suv resurslarini cheklanganligi kabib omillar ushbu hududda rekreatsion noqulayliklar tug'diradi.

Shularga qaramasdan cho'l zonasasi o'ziga xos va mos bo'lgan qator rekreatsion imkoniyatlarga ega. Bu borada makon va zamон tamoyiliga amal qilinsa, dam olish imkoniyatidan foydalanish samarali bo'ladi. Havo salqin, musaffo, qumlar namiqqan, ajoyib qum tepalar dengiziga qumli yuzalar naqshli chizgilar hosil qiladi. Rekreatsion landshaftlar ya'ni keng ommani hamda yo'lanma bilan kelgan dam oluvchilar uchun ajratilgan va shart sharoitlar yaratilgan hududlardir.

To'dako'l suv ombori - Navoiy viloyatidagi suv ombori. Buxoro shahridan 26 km sharqdagi tabiiy soylikda. Quyimozor suv omborining janubi-g'arbida barpo etilgan. 1968-yilda ishga tushirilgan. 1977-yilda rekonstruksiya qilingan. To'liq hajmi 800 mln. m³. Suv yuzasining maydoni 17,5 km², o'rtacha chuqurligi 4,8 m. To'g'oni balandligi 4 m, maksimal suv chiqarish imkoniyati 46,0 m³/sek. O'rtacho'l kanali orqali Zarafshon daryosining ortiqcha suvlarini jamg'aradi. Yuqorida qayd qilinganidek, suv ombori juda katta maydonga ega (225 km kv) To'dako'l suv omborining janubi-g'arbiy sohili rekreatsion resurslar uchun qulay imkoniyatlarga ega. Amu-Buxoro mashina kanali orqali Amudaryodan to'ldiriladi. Kanalning etak qismidagi yerlarni qo'shimcha suv bilan ta'minlaydi. Tutashtiruvchi kanal orqali Quyimozor suv omboriga suv beradi. To'dako'l suv omborida dam olish zonasining tashkil etilishiha, birinchidan, yoz paytalarida shimoli-sharq tomonidan yoqimli shabada esib turadi. Ikkinchidan, juda sayoz qumli chag'illi sohil cho'milish va dam olish uchun asqotadi. Bundan tashqari tabiat manzaralarini tomosha qilish imkoniyatlari yuqori. To'dako'l suv ombori atrofida bugungi kunda 22 ta turizm sohasidagi xususiy tadbirdorlik subyektlari mavjud bo'lib, ularda 1282 nafar mehmon qabul qilish imkoniyatiga ega. Shuningdek, bugungi kunda To'dako'l suv havzasasi atrofida turizm obyektlarini tashkil qilishga oid qiymati 17,3 mlrd so'mlik loyihalarni amalga oshirilmogda. To'dako'l suv havzasida turizm rekreatsion zonalar barpo etilishi hamda turizm loyihalarning ishga tushirilishi xorijiy sayyoohlarni qabul qilish imkoniyatini 3 barobar (45-50 mingtagacha), mahalliy sayyoohlarni qabul qilishni esa 5 barobarga (1,5 mln.) oshirish, sayyoohlarni mazkur hududda kamida 2-3 kun ushlab qolishga zamin yaratadi [3].

Dam olish maqsadlari uchun ushbu makonda birinchi bo'lib Navoiy tog' metallurgiya kombinatiga qarashli "Lazurnaya" sanatoriysi tashkil qilingan. Sanatoriya aksariyat yilning iliq davrida faoliyat ko'rsatadi. Sanatoriya ichida zamoniyy kollejlar, keypinglar qurilgan. Bundan tashqari 2 hektarga yaqin mevali bog', uzumzorlar tashkil qilingan, 200 m kenglikda cho'milish zonasasi tashkil qilingan. Sanatoriya hududida janub tomonidan yondosh bo'lib, Buxoro dam olish zonasasi joylashgan. Ikki - uch km sohil bo'ylab cho'zilgan bu zonada Buxoro viloyati tashkilotlari tomonidan buniyod etilgan binolar, yashil yo'laklar, sohil bo'yli cho'milish maydonchalari yaratilgan. Bular orasida Buxoroliklar uchun yaratilgan rekreatsion zona o'ziga xos. Yarim hektar keladigan asfalt maydonchasi ikki tomonidan baland ayvonlar bilan o'ralgan. Sohil oldida mevali daraxtlardan iborat bog', uning g'arbiy tomonida esa qattiq qoplamli yo'laklar, kerakli infratuzilmalar barpo qilingan. Lekin mazkur rekreatsion zona keyingi yillarda ta'mir talab bo'lib qolgan.

Dam oluvchilarini kutib olish, ularga shart - sharoitlarni yaratib berishda kamchiliklar ko'p. Zonani ko'kalamzorlashtirish, obodonlashtirish talab dajasida emas. Qazib tashlangan, tashlandiq yerlar, tashlandiq binolar zonaning ko'rkiga "soya" tashlab turibdi. Cho'milish

yo'laklarida soyabonlar o'matish, ularning sanitariya - gigiyeniya, ekologik bolatini yaxshilash, ta'mirlash lozim. Quyimozor suv ombori esa aksariyat ichimlik suvi manbai sifatida foydalaniadi va muhofaza qilinadi. Suv ombori sohillari himoya zona sifatida qo'riqlanadi. Shu bois bu yerda dam olish zonalari yo'q hisobida. Faqat erkin dam oluvchilarni uchratish mumkin. Suv omborining shimoliy sohilida Kogon - Toshkent temir yo'liga yondosh yerda "temir yo'lchilarning dam olish zonasasi" barpo etilgan. Zona taxminan 1 hektar maydonni egallaydi, beton devorlar bilan o'rangan. Sohil bo'yini zinapoyasimon ko'tarilib turadi va Quyimozorni tomosha qilib turadigan sahnaga o'xshaydi. Sohil chag'illi allyuvial negizga ega. Uzoqdan suv omborining tik - chinksimon yerli relyef ajoyibotlarini kuzatish mumkin. Salqin shabada doim sizni kuzatib turadi. Dam olish xonalari, to'rt tomoni ochiq supali ayvon dam olish imkoniyatlarini oshiradi [4].

Sohil relyefiga uyg'un bo'lgan zinapoyalar dam oluvchini ruhini ko'taradi. Bundan tashqari, Quyimozor, Qiziltepa nasos stansiyalari oldida mevali bog'lar, orom bag'ishlovchi infratuzilmalar barpo qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-iyundagi 4755-sonli qarorida "To'dako'l suv ombori hududida turistik zonani tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha suvda dam olish turlari va plyaj turizmini rivojlantirish, ko'liga yo'lovchilarni tashish uchun doimiy avtobus qatnovlarini yo'liga qo'yish, tadbirkorlik subyektlarini jalg qilgan holda turizm va unga yondosh infratuzilmani rivojlantirish" nazarda tutilgan.

To'dako'l suv havzasi qirg'og'ida zamonaviylar talablarga muvofiq "Silk Road Family Resort" sayyohlik kurorti barpo etilib, sohilbo'yini dam olish maskaniga aylantirildi. To'dako'l qirg'og'iga tutash bo'lgan 15 hektar maydonda mazkur obyektning birinchi bosqichida - 500 nafar, ikkinchi bosqichida esa 1500 nafardan ortiq sayyohni qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Bu sayyohlik dam olish maskani ishga tushgach 150 dan ziyod yangi ish o'rinnari yaratilishi ko'zda tutilgan. Obyekt hududini obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish maqsadida 7 ming tup manzarali daraxtlar ekish mo'ljallangan bo'lib, ayni paytgacha 3 ming tupdan ortiq ko'chatlar o'tkazilgan va plyaj hududi bo'ylab tabiiy chim yetqizilgan. Ushbu sayyohlik obyekti plyaj, basseyn, quvosh nurida toblanish, akvapark, attraksionlar, 50 o'ringa mo'ljallangan mehmonxonalar, dam olish tapchanlari, korabl timsolidagi restoran, yozgi terassa, SPA-salon, tabiat qo'yinidagi o'yingoh, tibbiyot burchagi, sog'lomlashtirish maskani, sport o'yingohi, ot sporti maydoni, avtoturargoh va maxsus suv transportlari kabi turli qo'shimcha xizmatlarni ham o'z ichiga oladi. Bu maskanga tashrif buyuruvchilar uchun ochiq osmon ostida bir-biridan qiziqarli konsert va shou dasturlari ham namoyish etiladi.

Quyd qilish joizki, dam oluvchilar uchun eng qiyinchilik tug'diradigan narsa, bu dala yo'llarinining talab darajasida emasligi, ikkinchidan dam olish shart-sharoitning to'la-to'kis mavjud emasligidir. Bu o'rinda dam oluvchilarning ekologik madaniyatining pastligini ham aytish lozim. Ularning o'simlik, hayvonlarga munosabati, dam olish bilan bog'liq chiqindilarni bartaraf qilish borasidagi hatti-harakatlari sanitariya-gigiyena talablariga javob bermaydi. Mamlakatimizda, jumladan Buxoro-Navoij viloyatlarida ro'y berayotgan iqtisodiy-ijtimoiy yuksalish, kelgusida Quyimozor - To'dako'l hududiga tashrif buyuradigan erkin dam oluvchilar sonini ko'payishiga olib keladi. Shu boisdan hududning rekreatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

1. Quyimozor - To'dako'l suv omborlariga yondosh yerlarda mavjud bo'lgan yalang, tushlandiq chag'il konlarining ayrim qismlari hozirgi davrda chiqindi - axlatxonalarga aylantirilgan. Bu yerlarni rekultivatsiya, ya'nii fitomelioratsiya qilish zarur. Buning uchun qora saksovul, shuvoq, ili astragili kabi gipofitlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Asosan ichimlik suv manbai sifatida foydalanib kelinayotgan Quyimozor suv omborini muhofaza qilish choralarini takomillashtirish zarur. Hozirgi kunda ko'l bo'yida ayrim

tashkilotlarning dam olish maskanlari mavjud. Bundan tashqari ko'l atrofida qonunbuzarlarni ogohlantiruvshi belgilar o'matilmagan.

Bularning bari O'zbekistonda turizm turlarini yanada rivojlantirish, mahalliy va xorijiy sayyoohlar oqimini oshirish barobarida mahalliy aholini qo'shimcha ish o'rnlari bilan ta'minlash va shu orqali ularning turmush farovonligini oshirish imkonini beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar

- Бопоров З. Ўртачўл, Навоий, 1998. 64 б.
- Назаров И.К. Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природопользования. Ташкент, Фан, 1992.101. с.
- Расулов А.Р., Ҳикматов Ф.Х., Айтбоев Д.П. Гидрология асослари. – Тошкент.: Университет, 2003.
- Эргашева М.К., Мирзаса И.Э., Нематов А.Н. Тұдакұл ва Күйимзор сув омборларининг рекреацион имкониятларидан симарали фойдаланишининг географик жиҳатлари. "Ўзбекистон географикси: табиати, аҳолиси, ҳўжалиги". Иктидорли талабалар ва ёш одимларнинг илмий-амалий конференцияси материаллари. Тошкент. 2013. –Б. 89-91.

SAKRAL GEOGRAFIYANING NAZARIY- METODOLOGIK MASALALARI

Муқимова Н.И., Nurmatoev N.E. (Qurshi davlat universiteti, O'zbekiston)

Annotatsiya: ishda sakral obyektlarning – muqaddas joylarning imtakilu va geografik xususiyatlari, sakrallik tushunchasi, sakral tasavvurlar, geografiyaning integrallashuvi, sakral geografiyaning tarkib topishi, rivojlanishi va hozirgi holati, sakral geografiyaning fanlar tizimidagi o'rni bayon qilingan.

Kalit so'zlar: sakral, muqaddas, sakral obyekt, diniy jahonning geografiyaviyligi, sakral geografiya, belgiligi-simvolik jihatlar.

НАУЧНО – МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ САКРАЛЬНОЙ ГЕОГРАФИИ

Annotatsiya: В работе описаны общие и географические особенности сакральных объектов – святых мест, понятие сакральности, сакральные представления, интеграция географии, становление сакральной географии, её развитие и современное состояние, место в системе наук.

Ключевые слова: сакральность, священное, сакральный объект, географичность религиозных аспектов, сакральная география, знаково-символические аспекты.

SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL ISSUES OF SAKRED GEOGRAPHY

Abstract: the paper describes the general and geographic features of sacred objects – sacred places, the conception of sacredness, sacred representations, the integration of geography, the formation of sacred geography, its development, the current state and its place in the system of sciences.

Keywords: sacredness, sacred, sakral object, geography of religious aspects, sakral geography, sign-symbolic aspects.

Yer shari yuzasida muqaddaslik – sakrallik toifasi bilan bog'langan, ya'ni xalqlarning individual va jamoaviy ongida beqiyos qiymatga ega bo'lgan alohida qadrlanadigan ko'plab obyektlar mavjud. Diniy sajiyadagi elementlar deyarli hamma joyda mavjud. Kishilarning muayyan manzillardagi guruhlari muayyan diniy-madaniy an'analarning tarqatuvchilaridir. Sotsial-iqtisodiy landshaftning juda ko'p ob'yektlari va elementlari o'zining rivojlanishining diniy tomonlariga va diniy simvolikasiga ega. Tarixiy jarayonlarga noan'anaviy qarash uchun